ZAMONAVIY TA’LIMDA INTIZOM MASALASIGA OID NAZARIYALAR

Abdusalomov Zuxriddin Abduvali o’g’li
Osiyo xalqaro universiteti 1-kurs magistratura talabasi

Annotatsiya. *Zamonaviy ta’lim tizimida intizom masalasi o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlovchi muhim pedagogik va psixologik omillardan biri hisoblanadi. An’anaviy ta’lim yondashuvlarida intizom asosan qat’iy nazorat va tashqi talablar orqali ta’minlangan bo‘lsa, bugungi kunda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyalari intizomni o‘quvchining individual-psixologik xususiyatlari, ichki motivatsiyasi va ongli xulq-atvori asosida shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur tezisda zamonaviy ta’limda intizom masalasiga oid asosiy nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi hamda ularning ta’lim amaliyotidagi ahamiyati yoritib beriladi.*

Kalit so’zlar: *ta’lim jarayoni, intizom, Karl Rojers nazariyasi, individual yondashuv, psixologik xususiyatlar, motivatsiya.*

KIRISH.

Pedagogika va psixologiya fanlari doirasida keng o’rganilayotgan sohalardan biri bu- zamonaviy ta’limda intizom masalalaridir. Ta’lim jarayonining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘quvchi va talabalarning intizomiy xulq-atvoriga bog‘liq bo‘lib, bu holat nafaqat tashqi tartibga rioya etish, balki shaxsning o‘zini boshqarish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllana boshlagan zamonaviy pedagogik nazariyalarda intizom tushunchasiga bo‘lgan yondashuv asta-sekin o‘zgarib, uni faqat majburiyat emas, balki shaxsiy rivojlanish omili sifatida talqin etish

tendensiyasi kuchaydi. J. Devey, F. Froebel kabi pedagoglar intizomni o‘quvchining faol ishtiroki va tajribasi asosida tabiiy ravishda shakllanuvchi jarayon sifatida ko‘rganlar. J. Devey g‘oyalariga ko‘ra, ta’lim jarayonida jazolash emas, balki ijtimoiy o‘zaro ta’sir va tajribaga asoslangan faoliyat intizomni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM.

An’anaviy pedagogik yondashuvlarda intizom asosan o‘quvchi xulq-atvorini qat’iy qoidalar va nazorat orqali boshqarish bilan tavsiflanadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida faoliyat yuritgan E. Thorndike, I. Pestalozzi kabi olimlar intizomni ta’lim muassasalarida tartib va me’yorlarni ta’minlash vositasi sifatida talqin qilganlar. Xususan, E. Thorndike o‘quvchi xulq-atvorini rag‘batlantirish va mukofotlash orqali boshqarish mumkinligini ta’kidlab, stimulyatsiya mexanizmlarining ahamiyatini ko‘rsatib bergan.

Zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlarda esa intizom tushunchasi shaxsning ichki nazorat mexanizmlari bilan bog‘liq holda izohlanadi. Karl Rojers tomonidan ishlab chiqilgan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasida o‘quvchini jazolashdan ko‘ra, uning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va ichki motivatsiyasini hisobga olish muhim deb hisoblanadi. Mazkur yondashuv natijasida intizom tashqi majburiyat shaklidan o‘quvchining ongli ravishda shakllangan ichki intizomiga aylanishi kuzatiladi. Shuningdek, L. S. Vygotskiy, A. N. Leontev, S. L. Rubinshteyn kabi olimlarning faoliyatga asoslangan nazariyalarida intizom ijtimoiy-madaniy muhit va faoliyat jarayonida shakllanuvchi hodisa sifatida talqin etiladi. Ularning fikriga ko‘ra, intizom dastlab tashqi boshqaruv orqali yuzaga kelib, keyinchalik internalizatsiya jarayoni natijasida shaxsning barqaror xulq-atvoriga aylanadi. Ilk bosqichda o’quvchining faoliyat jarayonida shakllanadigan xulq-atvorini o’rganish; Ikkinchidan, ijtimoiy va madaniy

muhit ta’siri bilan ichki nazorat mexanizmlarini rivojlantirish va so’nggi bosqich, ichkilashuv(internalizatsiya) jarayoni orqali barqaror xulqqa aylantirishdir. Bu g’oya pedagogika va psixologiya fanlari doirasida faoliyatga asoslangan yondashuv deb qaraladi. Bunda o’quvchi muammoli vazifalarni bajarish, guruh ishlari va refleksiya orqali xulqni boshqarish ko’nikmalari rivojlanadi va uning faol harakati orqali intizom shakllanadi.

G. Bear tomonidan amaliyotga tatbiq etilgan ijobiy intizom konsepsiyasiga ko‘ra, ta’lim jarayonida intizom jazolash va qat’iy nazorat orqali emas, balki o‘quvchining ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali shakllantiriladi. Ushbu yondashuvda o‘quvchi xulq-atvori muammo sifatida emas, balki tarbiyaviy imkoniyat sifatida qaraladi. Ijobiy munosabatlar, o‘zaro hurmat va aniq tushuntirilgan qoidalar o‘quvchida mas’uliyat hissi hamda o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy ta’lim amaliyotida intizom masalasi o‘quvchining faolligi va mustaqilligini cheklamasdan boshqarishni talab etadi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida refleksiya, o‘z-o‘zini baholash va ijtimoiy hamkorlik elementlarining joriy etilishi o‘quvchida ichki intizomni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Natijada, intizom o‘quvchining shaxsiy va ijtimoiy kamolotini ta’minlovchi muhim pedagogik omilga aylanmoqda.

Individual yondashuv texnologiyasi bo‘yicha milliy pedagogikamiz tarixida har bir ta'lim oluvchi bilan maxsus shug’ullanish va ta’lim oluvchilarning sonini 5 nafardan oshirmaslik an'anasi asrlar davomida mavjud bo'lib kelgan. Misol uchun, Abu Ali Ibn Sinoga (XI asr) boshlang’ich va o'rta maxsus ta'limni enagasi bergan. Ibn Sinoning eslashicha, u 14 yoshlarida enagasiga deydi: "negadir yoshligimda ko'zimga osmon chiziq-chiziq holatda ko'rinar edi". Enagasi deydiki, “Siz 3-4 yoshlaringiz vaqtida uxlaganingizda yuzingizni tor bilan to'sib qo'yar edim”. Demak, Ibn Sino 3-4 yoshliklaridagi

holatni eslashi bilan kuchli xotiraga ega ekanligini namoyon qilmoqda. Bu hol uning enagasining individual ta'lim-tarbiyasi hosilasi edi. Shu jihatdan milliy pedagogikamiz tarixida individual yondashuv vositasida ta'lim oluvchilarning xotirasi, tafakkuri va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini kutilgan jadajada shakllantirishga erishilgan. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy (XX asr) o'g'li Mas'udga 6 xorijiy tilni o'rgatgan va u "Katta jug'rofiya kitobi asarida yozishicha, o'g'li Mas'ud bilan shug'ullanish jarayonida miliy pedagogikamizning xususiy metodlarini tajribadan o'tkazgan. Shu sababli jadid pedagogi yangi tashkil etilgan jadid maktablarining har bir sinfida o'quvchilarning 12 nafardan oshmasligini tavsiya qilgan.

Mumtoz adabiyotimizda nizom so'zi ham intizom ma'nosiga qo'llanganini kuzatish mumkin. Masalan "Dunyoga kelgan payg'ambarlarning har birlari din va shariatlarini tartib va nizom ila yuritmishlar. Xususan islom dini mukammal ravishda tartib va nizomga rioya qilishdir". Abdulla Avloniy aytgandek "Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmakni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar". A. Avloniyning fikricha, intizomsiz odam jamoaga qarshi turadigan madaniyatsiz, ma'naviyatsiz shaxsdir. Tartib intizomga o'rgatish va o'rganish birinchi navbatda o'zi yashayotgan jamiyatga, jamiyat tomonidan o'rnatilgan tartib-qoidalarga hurmat belgisidir.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'limda intizom masalasiga oid yondashuvlar an'anaviy nazorat va jazolash tizimlaridan shaxsning ichki motivatsiyasi va ongli xulq-atvorini rivojlantirishga qaratilgan konsepsiyalarga tomon evolyutsiya qilmoqda. Ushbu nazariyalar faqatgina Yevropa olimlari tomonidan emas, balki o'zimizning millliy pedagogik olimlarimiz tomonidan ham olib borilganligi diqqatga sazavordir. Shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga

asoslangan yondashuvlar intizomni faqat tartibni saqlash vositasi emas, balki o‘quvchini mas’uliyatli, mustaqil va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirish omili sifatida talqin etadi. Bu esa zamonaviy ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dewey J. Democracy and Education. — New York: Macmillan, 1916.
2. Thorndike E. L. Educational Psychology. — New York: Teachers College Press, 1921.
3. Rogers C. R. Freedom to Learn. — Columbus: Charles Merrill Publishing, 1969.
4. Vygotskiy L. S. Mind in Society. — Cambridge: Harvard University Press, 1978.
5. Leontyev A. N. Activity, Consciousness, and Personality. — Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1978.
6. Bear G. G. Preventive and Classroom-Based Strategies for Effective School Discipline. — School Psychology Review, 2010.
7. Hasanboyev J. Va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. Toshkent, 2009
8. Mamatov J. A. O‘smir yoshdagi o'quvchilarda darsga nisbatan intizomli munosabatni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari.science and innovation. International scientific journal, 2022.